

JAMOATCHILIK FIKRI ASOSIDA SHAKLLANTIRILADIGAN LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMI: TAJRIBA VA ISTIQBOLLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11398724>

Murtozayeva Zarnigor Komol qizi,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti,

Email: nigorfinancer@gmail.com

Ilmiy rahbar: Qobulov Xotamjon Abdukarimovich,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, i.f.n., professor,

Email: khqobulov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda byudjet tizimi ochiqliqligi va shaffofligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'naliishlaridan biri bo'lgan tegishli hudud mahalliy byudjetidan amalga oshiriladigan xarajatlar yo'naliishlarini belgilashda fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida joriy etilgan jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish tizimi va o'tgan davr mobaynida orttirilgan tajribalar yoritib berilgan hamda tizim istiqboli uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jamoatchilik fikri, loyiha, mexanizm, fuqaro, jarayon, moliyalash-tirish tizimi, mahalliy hokimiyat, qonun hujjatlari, muammolar.

Jahon tajribasidan ko'rishimiz mumkinki, dunyo mamlakatlarida davlat byudjeti mablag'larining safarbar etilishida bevosita davlat va xalq o'rtasidagi o'zaro uzviy bog'liqlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda ham fuqorolarning byudjet jarayoniga jalb qilish mexanizmining joriy qilinishi hududlarda aholini qiy nab kelayotgan muammolarning yechimini topish va jamoatchilikni byudjet jarayonining ishtirokchisiga aylantirishda alohida vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birgalikda, jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish byudjetni dasturiy amalga oshirish

tartibini joriy qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan maqsad byudjet samaradorligini oshirish bo‘lib, oxir oqibatda xalq farovonligini ta’minlash va unga xizmat qilishdir. Shu sababli so‘nggi yillarda yurtimizda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish tizimi yanada takomillashib bormoqda va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlashda samarali byudjet amaliyoti ekanligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimini isloh etish jarayonida jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish mexanizmining ishga tushirilishi joylarda aholini qiyab kelayotgan muammolarning yechimini topish va jamoatchilikni byudjet jarayonining ishtirokchisiga aylantirishda alohida vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Shunday ekan bu tizimni yurtimizda yanada takomillashtirish uchun yuzaga kelayotgan ilmiy-amaliy muammolarni aniqlash hamda ko‘plab xorijiy tajribalarni o‘rgangan holda ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va ulardan foydalanish bugungi kundagi dolzarbl masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Yurtimizda mamlakatimiz aholisini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish jarayoniga keng jalb qilishni yanada kuchaytirish, byudjet mablag‘larining bir qismini jamoatchilik fikri asosida yo‘naltirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni izchil davom ettirish, shuningdek, o‘tgan davr mobaynida orttirilgan tajribani inobatga olgan holda mazkur tizimni yanada takomillashtirish maqsadida ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda o‘tkazib kelinayotgan tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlarida faol ishtirok etib kelayotgan keng jamoatchilikni yanada rag‘batlantirish, hududlardagi dolzarb muammolarni qisqa muddatlarda bartaraf etish hamda fuqarolarning ushbu jarayonlarda faolligini oshirish maqsadida 2022-yil iyul-sentyabr oylari davomida o‘tkazilgan tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlarida 1221 ta mahalla fuqarolar yig‘ini tomonidan ilgari surilgan qiymati 1 trillion bo‘lgan 1 418 ta loyiha g‘olib bo‘ldi.⁷¹ Lekin shunga qaramasdan ko‘plab

⁷¹ www.openbudget.uz (O‘zbekiston Respublikasi “Ochiq Byudjet” portali) ma’lumotlari

juda ko‘p ovoz to‘plagan hamda hal etilishi zarur bo‘lgan ko‘plab loyihalarning go‘lib bo‘la olmay qolib ketishi bu jarayonda yuzaga kelayotgan katta muammolardan biri edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktyabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarini moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-sonli Qarori asosida Moliya vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining 2022-yil iyul-sentyabr oylari davomida o‘tkazilgan tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlarida har biri 2 mingdan ortiq ovoz to‘plagan, lekin g‘olib deb topilmagan 364 ta loyihani amalga oshirish uchun qo‘srimcha ravishda 335 milliard so‘m mablag‘ni ajratish to‘g‘risidagi taklifining ma’qullanishi bu muammoni anchagina yechim topishiga sabab bo‘ldi. Bundan tashqari ushbu qarorga muvofiq endilikda Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetida shakllangan qo‘srimcha mablag‘larning 30 foizi ham tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi va tuman (shahar) byudjetlarining 5 foizi miqdorida lekin minimal miqdori kamida 6 milliard so‘m mablag‘ qilib belgilanishi ayrim tumanlarda byudjet parametrining kichkinaligi tufayli u yerlardagi katta bajarilishi kerak bo‘lgan muammolarni hal bo‘lmay qolish muammosiga ham yaxshigina darajada yechim bo‘la oldi.

2023-yil hisobi bo‘yicha jami tashabbusli byudjet loyihalarini moliyalashtirish uchun 4 trln 307 mlrd 300 mln so‘m mablag‘ ajratilgan. 2022-yil bu mablag‘lar 2 trln 620 mlrd 300 mln tashkil etgan.⁷² 2023-yil ajratilgan mablag‘lar deyarli 2 barobarga oshgan. Chunki bunga sabab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi “Tashabbusli byudjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-117-sonli Qaroriga muvofiq Iqtisodiyot va moliya

⁷² www.openbudget.uz (O‘zbekiston Respublikasi “Ochiq Byudjet” portali) ma’lumotlari

vazirligining 2023-yil birinchi mavsum doirasida o‘tkazilgan tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlarida har biri 2 mingdan ortiq ovoz to‘plagan, lekin g‘olib deb topilmagan 1 309 ta loyihani amalga oshirish uchun qo‘s Shimcha ravishda 1,3 trln so‘m mablag‘ni ajratilishi. Bundan tashqari, 2023-yilga mo‘ljallangan dasturlarni tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali shakllantirish, loyihalar paketi uchun ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorini 8 milliard so‘m etib belgilanishi, dasturlarni moliyalashtirish uchun har yili Davlat byudjetidan kamida 4 trillion so‘m, 2023-yil uchun istisno tariqasida 2,7 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirilishi bo‘ldi.

Bundan tashqari, yurtimizda “Tashabbusli byudjet” jarayonlarida g‘olib loyihalarni aniqlash maqsadida berilayotgan ovozlarning haqqoniyligini yaxshilash maqsadida Raqamli texnologiyalar vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan bиргаликда 2024-yil 9-fevralga qadar “Ochiq budget” axborot portalida fuqarolarni identifikatsiya qilish orqali “Bir fuqaro — bir ovoz” tamoyili ishga tushirilishini ta’minlashi, unga ko‘ra “Ochiq budget” axborot portalida jismoniy shaxsning mobil raqami ma’lumotlari Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazining elektron tizimi orqali aniqlashtirilishining yo‘lga qo‘yilishi orqali erishildi.⁷³

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish tizimining O‘zbekistonda joriy qilinganiga hali ko‘p bo‘limgan bo‘lsa ham joylarda aholini qiynab kelayotgan ko‘plab muammolarning yechim topishi va jamoatchilikni byudjet jarayonining ishtiroychisiga aylantirishda alohida vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Shunga qaramay jarayonda yuzaga kelayotgan muammolar ham mavjud bo‘lib, ular o‘tgan davr mobaynida orttirilgan tajribalar asosida amalga oshirilayotgan ko‘plab chora-tadbirlar orqali o‘z yechimini topmoqda.

⁷³ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi “Tashabbusli budget jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-666-IV-sonli Qurori

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktyabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lамини kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-sonli Qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi “Tashabbusli budgetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarни qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-117-sonli Qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi “Tashabbusli budget jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-666-IV-sonli Qarori
4. O‘roqov.U., Uskenbaeva.D. O‘zbekistonda tashabbusli byudjetni joriy etishning tashkiliy-huquqiy asoslari. “Science and Education“ Scientific Journal / Impact Factor - 3.567 (SJIF) July 2022 / Volume 3 Issue 7.
5. O‘roqov U, Irgashev I, G‘aybullaev O. Fuqarolar ishtirokidagi mahalliy byudjet.2022
6. Qobulov.X., Murtozayeva.Z. O‘zbekistonda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish tizimini joriy etilishi va rivojlanishi “Science and education” Scientific journal / Issn 2181-0842 December 2023 / Volume 4 Issue 12
7. www.openbudget.uz (O‘zbekiston Respublikasi “Ochiq Byudjet” portali)